



**FARG‘ONA VA TOSHKENT MUSIQA USHLARINING
SHAKLLANISH TARIXI: MADANIY VA IJTIMOY OMILLAR.**

Yusupov Oybek Ulug‘bek o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

Musiqa ta‘limi va san‘at yo‘nalishi magistratura 1-kurstalabasi

Annotatsiya:

Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublari milliy madaniyatimizning bebaho merosidir. Ushbu maqola mazkur uslublarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan madaniy va ijtimoiy omillarni o'rganadi. Shashmaqom va Xorazm maqomlari bilan o'ziga xoslik jihatlari, mahalliy xususiyatlar, ijrochilik an'analari hamda bu musiqa yo'nalishlarining amaliy hayotdagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona-Toshkent maqomlari, mahalliy musiqa, madaniy meros, katta ashula, uslubiy xususiyatlar, musiqa ijrochiligi.

Farg‘ona vodiysi va Toshkent hududi uzluksiz ravishda o‘zining boy madaniy merosi bilan ajralib turadi. Ushbu mintaqalarda shakllangan musiqa uslublari milliy musiqa san'atining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu maqolada Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublarning rivojlanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-madaniy omillar, ijrochilik an'analari va uslubiy o'ziga xosliklar tahlil qilinadi.

Farg‘ona va Toshkent musiqa uslublari madaniyatshunoslar va musiqa mutaxassislari tomonidan keng tadqiq qilingan. Maqomlar tizimi, katta ashula va milliy cholg'ularning rolini o'rganish madaniy merosimizni yanada chuqurroq anglashga imkon beradi. Xususan, Shashmaqomning Xorazm maqomlari bilan o'xshash va farqli jihatlari musiqiy xilma-xillikni ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotda adabiyot tahlili, tarixiy taqqoslash, va mahalliy musiqiy namunalarni o'rganish usullari qo'llanildi. Shuningdek, musiqa ijrochiligi va mahalliy an'analarga oid og'zaki ma'lumotlar yig'ildi va tahlil qilindi.

Toshkent–Farg‘ona mahalliy – musiqiy uslubi. Ma'lumki, ushbu katta hududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Hududning an'anaviy musiqa ijodiyoti umummilliy, oziga xos mahalliy boshqa uzoq–yaqin qo'shni mintaqalardagidan ayrim farqli xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Tuzulishi jihatdan oddiy, ixcham hajmli mavzu va mazmun doirasi bo'yicha xilma-xil kuy, qo'shiq hamda ashulalar bu hududda juda keng tarqalgan. Jumladan, bu o'lkada bir qancha xalqchil maishiy, marosim, shuningdek, erkin tarzda cholg'u va ayrim janrlar qatorida ayollar qo'shiqlari ham nihoyatda mashhurdir. Mazkur mintaqaga xos bo'lgan yana ko'plab terma, bolalar qo'shiqlari, lapar, yalla, ashula, cholg'u kuy, bir qismli va turkumli maqom yo'llari, ko'proq chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq joylarida esa dostonlar va yana katta yoki patnis (yovvoyi) ashulalar asosiy o'rin egallaydi.

Farqona vodiysi – Toshkentning bastakorlar ijodkorligiga molik misollari esa hajman kattaligi, tuzulishi nisbatan murakkabligi, ba'zida usluban mutloq noyobligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, musiqa ijrochiligidan kasbiy mezonlari ham yuqori darajada. Bu o'rinda, ayniqsa, katta ashula “milliy - mahalliy” jarayonga yorqin namuna bo'la oladi.

O'zbek milliy cholg'ularidan esa dutor, tanbur, sato, g'ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo'shnay, surnay, karnay, nog'ora, doyra kabilar juda ko'p qo'llanib kelingan. Farg'ona – Toshkent maqomi namunalari o'zlarining xalqchil, shinavandabop xalq ashulalariga yaqinligidan dalolat beruvchi bir qator hislatlar bilan ta'riflanadi. O'zbek tinglovchilari orasida mashhur bo'lib ketgan surnay maqom yo'llari, “yovvoyi” yoki “patnisaki” ashulalari, mumtoz cholg'u kuy hamda ularning noyob ijrochilik san'ati ham aynan shu hududning salohiyatli musiqa madaniyatiga xosdir. Farg'ona – Toshkent usulbi Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an'analarning majmuyidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa hamda bastakorlik an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona – Toshkent musqa uslubida bolalar folklori, xotin-qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo'lgan “boychechak”, “yomg'ir yog'aloq”, “laylak keldi”, “oftob chiqdi”, “chuchvara”, “chittigul” kabi qo'shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorumiz bo'ylab mashhurdir.

Xotin – qizlar davrasida lapar-u yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan “yor-yor”, “kelin salom” va boshqa qo'shiq namunalari sevib aytiladi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida “katta ashula” deb nom olgan ashula yo’li ham bo’lib, u odatda turli ommaviy yig’in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap – gashtaklarda hamda an’anaviy choyxona majlislarda hofizlar tomomnidan ijro etib kelingan.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida Haydar ota Boychiev, Jumaboy baxshi, Razzoq baxshi Qozoqboev, Qobilboy baxshi kabi do’mbira chertib, doston aytuvchi baxshilar ham bo’lib, ularning repertuari asosan “Alpomish”, “Go’ro’g’li”, “Rustamxon”, “Avazxon”, “Shirin va shahar” kabi dostonlardan tashkil topgan.

Farg'ona – Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg’ularini, jumladan, dutor, tambur, rubob, chang, sato, g’ijjak, nay, qo’shnay, surnay, karnay, doira, nog’ora va boshqa sozlarni ko’rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab yakka yoki ansambl (dasta) shaklida namoyon bo’ladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to’y marosimlarida surnay, karnay, nag’ora va doiralardan iborat ansambl sadolari yangrasa, uy - xona sharoitida esa sadolanish nisbatan yumshoq cholg’ular, tanbur, g’ijjak, qo’shnay, rubob va boshqalar qo’llaniladi. Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholg’uning o’z o’rni, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorning tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish maxsus “Qo’shtor”, “Chertmak”, “Dunyo bayoti” kabi kuylar bo’lmish bilan birga yana undan jo’rnavoz sifatida ham foydalaniladi. Bu o’rinda dutor (doira kabi) xotin qizlar orasida keng ommalashgan cholg’udir. Ayni chog’da, ashulaga hofizlar ham dutorni tanbur bilan birga o’z ashula aytimlariga jo’rnavoz etadilar. Ammo tanbur, sato, nay, qo’shnay, g’ijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqachilar cholg’usi hisoblanadi, ya’ni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik ko’rgan musiqachilar bo’lishi kerak.

Farg'ona – Toshkent cholg’u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bulardan: “Dilxiroj”, “Andijon polkasi”, “Farg’onacha rez”, “Tanovor”, “Namangan olmasi”, “Katta o’yin” kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

Farg'ona – Toshkent musiqa uslubida xotin – qizlar ijodi unumli bo’lib, ular orasida, jumladan, tarafma – taraf lapar aytishlar, turli qo’shiqlarni kuylash, to’y marosim aytimlari bo’lgan “yor – yor”, “kelin salom” va o’lanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida, ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

Mustaqillikka erishilgandan so'ng milliy qadriyatlarimiz tiklana boshlaganda musiqa san'atimiz yana rivojlana boshladi. Shu jumladan katta ashulaga e'tibor kuchaydi. Jumladan, 1996-yil aprel oyida Shahrisabz shahrida Respublika miqyosida katta ashula tanlovi o'tkazildi. Shu yili Namangan viloyati bo'yicha o'tkazilgan "O'zbekiston Vatanim manim" qo'shiqlar tanlovida katta ashula alohida janr qilib ko'rsatildi. Hofizlar yanada ko'payib bormoqda.

Ashulaning boshqa turlari, odatda, o'tirib ijro etilsa, katta ashula ko'pincha tik turib aytiladi. Katta ashula kuyini deklamatsion xarakterdaligi diapozonining kengligi (uch oktavaga yaqinligi), asosiy melodik tuzilmaning turli xilligi, qochirimga boyligi, o'z ritm o'lchovining muttasil (ma'lum me'yordagi tartibda) bo'lganligi bilan harakterlidir. Katta ashulani qadimda faqat erkaklar kuylar edilar, endi esa buni ayollar ham ijro etmoqdalar.

Har bir davrning o'z san'atkorlari va ijodkorlari bordir. Musiqa sohasida VII asrda Xusrav saroyida yashab ijod etgan Barbad Marviy, XV asrda yashab ijod etgan Xoja Yusuf Andijoniy, shu davrda yashagan ustod nomini olgan ustod Shodiy va boshqalar ko'hna zamin fahridirlar.

Barbad 1001 she'r va kuy bastalagan, Xoja Yusuf Andijoniy 360 dan ortiq kuy va qo'shiqlar yaratgan. Ustod Shodiy Iroq maqomi yo'lida 12 naqsh (naqsh - ashula) yaratgan Alisher Navoiy Xoja Yusufning nomini o'zining "Majolis un-Nafois" asarida katta hurmat bilan tilga olgan. Aytishlaricha Sulton Xusayn ham musiqa ilmini Xoja Yusufdan o'rgangan.

XX asr boshlarida Namanganda Abdulla Taroq, Samarqandda Domla Halim Ibodov, Xo'ja Abdulaziz Niyozov, keyingi davrlarda Buvayda tumanidan Rasul qori Mamadaliev Marg'ilondan Ma'murjon Uzoqov, Jo'raxon Sultonov, Baliqchidan Odiljon hofiz, Namangan viloyati o'nhayot qishlog'idan Mallavoy aka, Ibroyimjon aka va boshqa hofizlar ijod qilganlar. Hozirgi davrda Toshkentdan Eson Lutfillaev, Andijondan Fattohxon Mamadaliev, Marg'ilondan Tursunoy opa Rahimova, To'raqo'rg'ondan Mashrabjon va Tursunboy akalar, uchqo'rg'ondan aka – uka Qozaqovlar, Namangandan Yo'ldoshali Tillaboev, Abdusamad Komilov va boshqalar katta ashula yo'lida samarali ijod qilmoqdalar.

Farg'ona –Toshkent maqom cholg'u turlari turli xil xalq cholg'ularida ijro etish an'anasi ham mavjud. Shuningdek, bu kuylar turli vazifalarda chalinadi. Masalan,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

surnay yo'llari xalq tomosha va bayramlarida, dorbozlar o'yini va to'y bazmlarida, dutor, tanbur yoki g'ijjak ijrolari "uy sharoitlari" da o'tkaziladigan turli yig'in va majlislarda namoyon bo'ladi.

Farg'ona –Toshkent maqom cholg'u kuylarining ijrochilari, odatda, kasbiy musiqachilar bo'lib, ular bu san'atni ustozlardan o'rganadilar. Shu tarzda bu san'atni bizga yetkazib bergan taniqli sozandalar qatorida Abduqodir Ismoilov (nay), Ahmadjon Umrzoqov (qo'shnay, surnay), Ashurali Yusupov(surnay), Shobarot tanburchi, Abdumutal Abdullaev (tanbur), Muhiddin hoji Najmiddinov (dutor, tanbur), Abdusoat Vahobov (dutor), Komiljon Jabborov (g'ijjak, dutor, tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Saidjon Kalonov (nay), Fahriddin Sodiqov (chang, dutor) G'anijon Toshmatov (g'ijjak), Turg'un Alimatov (Tanbur, dutor, g'ijjak, sato), G'ulomjon Hojiqulov (g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilar nomini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona –Toshkent maqom ashula yo'llari (cholg'u yo'llari kabi) alohida bo'lgan bir qismli namunalardan tortib ko'p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Ayniqsa, besh qismli ashula turkumlari ko'proq uchraydi. Xususan, "Chorgoh", "Bayot", "Bayoti sheroziy", "Gulyor shahnoz" singari ashula yo'llari aynan besh qismdan iborat turkumli asarlardir.

Farg'ona –Toshkent maqom ashula yo'llari o'z ijrolari bilan yuksaltirilgan maqomchi hofizlar qatorida Shorahim Shoumarov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Shojalil hofiz, Ilhom hofiz, Sadirxon hofiz, Yunus Rajabiy, Rasulqori Mamadaliev, Fattohxo'ja Mamadaliev, Orifxon Xotamov kabi ustoz san'atkorlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak.

Farg'ona –Toshkent maqom yo'llari Navoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Muqimiy va boshqa mumtoz janrlarning she'rlari asosida kuyulanadi. Maqom yo'llari xalqimizning madaniy hayoti bilan bog'liq turli vaziyat va sharoitlarda, xususan, surnay yo'llari to'y – bazmlarda, xalq tomoshalari va sayllarda, dorbozlik o'yini va boshqa tantanalarda ashula yo'llari turli yig'in kechalari va kundauzgi majlislarda ijro etib kelinmoqda.

Farg'ona va Toshkent musiqa uslublarining shakllanishida mahalliy madaniyat va turmush tarzi muhim ahamiyatga ega. Marosim kuylari va katta ashula singari janrlar ijrochilikning asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan. Shu bilan birga,



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

mintaqaviy uslublarning shakllanishida ijtimoiy omillar, jumladan, aholining iqtisodiy va madaniy aloqalari hal qiluvchi rol o'ynagan.

Xulosa

Farg'ona va Toshkent musiqa uslublari xalqimizning madaniy hayotida alohida o'rin tutadi. Ularni o'rganish va rivojlantirish orqali milliy merosni avlodlarga yetkazish muhimdir. Shuningdek, musiqa maktablari va san'at muassasalarida mazkur uslublarni o'qitish tizimini kengaytirish lozim. Kelgusida Farg'ona va Toshkent musiqa uslublarining xalqaro darajada tanitish bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilishi kerak.

Adabiyotlar.

1. Gaziyeu, J. J. (2024). NAMANGAN VILOYATI TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI. *Inter education & global study*, (5 (1)), 456-465.
2. Joraxanovich, G. J. (2023). PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MUSICAL EDUCATION. *Open Access Repository*, 9(11), 8-10.
3. Собиров, Ю. Б. (2021). МЕТОДЫ ИЗМЕРЕНИЯ КОЭФФИЦИЕНТОВ ОТРАЖЕНИЯ ЗЕРКАЛ И КОЭФФИЦИЕНТОВ ПРОПУСКАНИЯ СТЕКОЛ. *Universum: технические науки*, (10-5 (91)), 5-12.
4. Gaziyeu, J. J. (2021). VOCAL MUSIC OF UZBEK COMPOSERS. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 260-262).
5. Gaziyeu, J. J. (2021). STYLISTIC FEATURES OF THE WORK OF FRANZ JOSEPH HAYDN. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 215-217).
6. Ахадов, Ж. З., & Абдурахманов, А. А. (2017). Теплоэнергетические параметры и балансовое распределение энергии парового котла солнечных высокотемпературных установок. *Computational nanotechnology*, (1), 71-74.
7. JURAKHONOVICH, G. J., & KARIMBERDIEVICH, R. K. Renewing the System of the Country and the Role and Significance of Art and Culture in Today's New Level of Modernization in Our Life. *JournalNX*, 6(05), 7-9.
8. Шашнева, Е. Н., & Газакова, С. (2021). ОБРАЗОВАНИЕ В КУЛЬТУРЕ ТУРКМЕНИСТАНА. *Печатается по решению редакционно-издательского*



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th January, 2025

-
- совета Шуйского филиала ФГБОУ ВО «Ивановский государственный университет», 266.
9. Akhmedov, B. (2023). THE FIRST FORMATION PROCESSES OF UZBEK VOCAL PERFORMANCE. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(8), 126-128.
 10. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG 'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(2), 92-96.
 11. Sayfiddinovich, A. B. (2023). AESTHETIC EDUCATION TO STUDENTS IN MUSIC CLASSES OF GENERAL SECONDARY SCHOOLS.
 12. Rakhimov, I. B. (2024). WAYS TO CREATE AND USE INTERNET RESOURCES IN GEOGRAPHY LESSONS. *Экономика и социум*, (2-1 (117)), 595-599.
 13. Rakhimov, I. B. (2024). METHODS FOR DETERMINING THE IMPACT OF LOCAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS ON HUMAN HEALTH. *MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION*, 1(01).
 14. Ikhtiyor, R. (2024). Using the Kahoot Education Platform to Create E-Learning Resources in Geography Education. *Journal of New Century Innovations*, 67(4), 19-23.
 15. Baxtiyor o'g'li, R. I. (2023). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA GEOGRAFIYANI O'QITISHNING ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH.
 16. Абдурахмонов, Б. М. (2023). УЧЕБНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КЛУБЫ КАК МЕТОДИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОГО ПОТЕНЦИАЛА В ВУЗАХ (ИЗ ОПЫТА КЛУБА "ГЕОГРАФ-ИССЛЕДОВАТЕЛЬ"). In *Современное географическое образование: проблемы и перспективы развития* (pp. 384-389).
 17. Abduraxmonov, B. M. (2023). TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARI UCHUN KARTOGRAFIK KATALOG YARATISH. *Research and education*, 2(5), 319-325.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfséries.com

11th January, 2025

-
18. Суслов, В. Г., & Абдурахмонов, Б. М. (2020). Построение урока географии на основе деятельностного подхода. *География и экология в школе XXI века*, (2), 39-42.
 19. Акабоев, И. З., Хакимов, М. М., & Турдалиев, И. Э. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КАРТ В ОХРАНЕ ПРИРОДЫ И ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ. *Экономика и социум*, (6-1 (109)), 593-598.